

26 aprel 2025 yil.271/01-40-son

“ T A S D I Q L A Y M A N ”

Zarafshon shahar hokimining
birinchi o‘rinbosari



A. Shoxmirzayev

Zarafshon shahar soliq inspeksiyasining faollar zalida
o‘tkazilgan yig‘ilish BAYONI

2025-yil 26-aprel

Zarafshon shahri

Rais:	A. Shoxmirzayev – shahar hokimining birinchi o‘rinbosari
Taklif etilganlar	B. Xolikulov – DXX Navoiy viloyati bo‘yicha boshqarmasi Zarafshon shahar bo‘limi xodimi, X. Kenjayev–Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Zarafshon shahar bo‘limi boshlig‘i, A. Isoqov–Jinoyat ishlari bo‘yicha Zarafshon shahar sudi raisi
Kotib	Sh. Ne‘matov – shahar hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘yicha bosh mutaxassisi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas‘ul
Qatnashdilar:	shahar soliq inspeksiyasi boshlig‘i o‘rinbosari, bozorlarga mas‘ul etib biriktirilgan soliq inspektorlari, “Navro‘z” MChJ rahbari va ishchi-xodimlari, “Bahor savdo kompleksi” MChJ rahbari va ishchi-xodimlari (ro‘yxat bo‘yicha).

K U N T A R T I B I

Jinoyatga jazo muqarrarlighi to‘g‘risida

(Shoxmirzayev, Xolikulov, Kenjayev, Isoqov, Berdiyev, Ishanqulov, Fayziyev,
MChJ ishchi xodimlari... Shoxmirzayev)

Kun tartibidagi masala yuzasida shahar hokimining birinchi o‘rinbosari, yig‘ilish raisi A. Shohmirzayev so‘zga chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida o‘tkazilgan Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisida belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar hamda korruptsiyaga qarshi tizimli chora-tadbirlar to‘g‘risida batafsil ma’lumot berdi.

Jumladan, u “Navro‘z” va “Bahor savdo kompleksi” MChJlarining faoliyatida moliyaviy intizomni mustahkamlash, ajratilgan mablag‘larning maqsadli va shaffof sarflanishini ta’minlash, shuningdek, bozorlarda korruptsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish zarurligini alohida ta’kidladi.

A. Shohmirzayev bozorlarda mavjud moliyaviy operatsiyalarni to‘liq raqamlashtirish, barcha to‘lov va kirim-chiqim jarayonlarini elektron shaklga o‘tkazish orqali inson omilisiz nazorat tizimini joriy etish, shu orqali shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish lozimligini qayd etdi. Shuningdek, bozorlarda ichki nazoratni kuchaytirish, har bir moliyaviy harakat ustidan ochiq monitoring olib borish va korruptsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq topshiriqlar belgilab berdi.

Shundan so‘ng so‘zga Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Zarafshon shahar bo‘limi boshlig‘i X. Kenjayev chiqib, o‘z nutqida bozorlardagi tadbirkorlarning ijara to‘lovlari va bozorlarga yo‘naltirilgan infrastruktura uchun ajratilgan mablag‘larni rejalashtirilgan smeta asosida, talon-taroj qilinmasdan maqsadli ishlatish zarurligini ta’kidladi. Shuningdek, bozorlardagi ishchi-xodimlarning lavozim majburiyatlari, yo‘riqnomalari va jamoa shartnomasi ijrosini to‘liq yo‘lga qo‘yish, lavozimidan ozod etilgan xodimlarning vazifalarini kimga yuklatilishi bo‘yicha aniqlik kiritish va moddiy javobgarlikni belgilash zarurligini qayd etdi. Shu bilan birga, to‘lovlarni imkon qadar plastik karta orqali amalga oshirish, ta’mirlab tadbirkorlik subyektlarini imkon qadar ta’mirlash va tadbirkorlarga ajratilgan maydonlarni tasdiqlangan hujjatlar asosida doimiy nazorat qilib borish yuzasidan bozorlar rahbarlariga topshiriqlar berdi.

Kun tartibidagi masala doirasida Davlat xavfsizlik xizmati Navoiy viloyati bo‘yicha boshqarmasining Zarafshon shahar bo‘limi xodimi B. Xoliqulov so‘zga chiqib, bozorlardagi holat yuzasidan olib borilayotgan nazorat natijalari bo‘yicha axborot berdi.

U o‘z nutqida hududdagi tadbirkorlar tomonidan ayrim shikoyatlar kelib tushayotgani, xususan, kunlik patta, infrastruktura va ijara to‘lovlari bozorlarning hisob raqamiga kirim qilinmasdan o‘zlashtirilayotgani, shuningdek, ayrim tadbirkorlarga mazkur to‘lovlar bo‘yicha “imtiyozlar” berilayotgani natijasida e’tirozlar yuzaga kelayotganini ta’kidladi. Ushbu holatlar aniqlanganda jinoyatga jazo muqarrarligi haqida tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, bozorlarga tushayotgan mablag'larni talon-toraj qilmasdan, ularni to'g'ri va shaffof tarzda kirim qilish hamda ajratilgan mablag'lardan qonuniy va maqsadli foydalanish zarurligi alohida qayd etildi.

Bundan tashqari, bozorlarda favqulodda holatlarning oldini olish, o't o'chirish moslamalarining doimiy ishlash holatini muntazam nazorat qilish, sanitariya-gigiyena talablariga qat'iy rioya etish, shuningdek, elektr va gaz tarmoqlaridan foydalanishda amaldagi normativ hujjatlar talablariga to'liq amal qilish lozimligi ta'kidlandi.

Tadbirkorlar belgilangan qoidalar asosida o'zlariga birlashtirilgan bozor hududida savdo faoliyatini olib borishlari, belgilanmagan joylarda tovar mahsulotlarini reklama qilishga yo'l qo'ymasliklari, aks holda bozordagi yo'llarning torayishi va aholi noroziligiga sabab bo'layotgan holatlarga barham berish zarurligi alohida ko'rsatib o'tildi.

Shuningdek, so'zga Jinoyat ishlari bo'yicha Zarafshon shahar sudi raisi A. Isoqov chiqib, o'z nutqida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari va jinoyatga jazo muqarrarlari tamoyilining amaliy ahamiyati haqida ma'lumot berdi.

U o'z so'zida, davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etishini, bu borada sud organlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklatilganini ta'kidladi. Shuningdek, bozorlarda moliyaviy mablag'lardan oqilona va qonuniy foydalanish, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, xodimlar va tadbirkorlar o'rtasida qonunbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan qat'iy choralar ko'rilishi lozimligini ta'kidlab o'tdi.

A. Isoqov jinoyat sodir etilgan taqdirda jazoning muqarrarlari prinsipiga amal qilinishi shartligini alohida qayd etib, har qanday noqonuniy xatti-harakatlar sud organlari tomonidan belgilangan tartibda ko'rib chiqilishini, qonuniy chora-tadbirlar qo'llanilishini ma'lum qildi. Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlari va bozor rahbarlari tomonidan qonunlarga rioya qilinishini, mulkiy va moliyaviy masalalarda halollik tamoyiliga amal qilinishini ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalarini bildirdi.

Yig'ilish yakunida u barcha bozor rahbarlari va xodimlarini qonuniylik va adolat tamoyillariga qat'iy amal qilishga, korrupsiya va huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga chaqirdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda bildirgan fikr va takliflar, shuningdek, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha berilgan ko'rsatmalarni inobatga olgan holda yig'ilish

Q A R O R Q I L A D I:

1. Kun tartibidagi masala yuzasidan soʻzga chiqqanlarning axboroti maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Shahar soliq inspeksiyasi (**Baxronov**), “Bahor savdo kompleksi” MChJ (**Fayziyev**) va “Navroʻz” MChJ (**Ishanqulov**) rahbarlariga:

bozorlarga tushayotgan kunlik patta, infrastruktura va ijara toʻlovlari mablagʻlarini bozorlarning rasmiy hisob raqamlariga toʻliq va oʻz vaqtida kirim qilish;

mablagʻlardan foydalanishda shaffoflikni taʼminlash, mablagʻlarni qonuniy va maqsadli yoʻnaltirish ustidan doimiy nazoratni kuchaytirish;

bozor hududida tushayotgan barcha moliyaviy mablagʻlarni smeta asosida rejalashtirish va ularning maqsadli sarflanishini qatʼiy nazorat qilish;

barcha moliyaviy operatsiyalarni imkon qadar raqamlashtirish, toʻlovlar va daromadlarni plastik karta va boshqa elektron toʻlov vositalari orqali amalga oshirish tizimini joriy etish;

ajratilgan mablagʻlarning qonuniy asosda va talon-taroj qilinmasdan ishlatilishini doimiy monitoring qilish vazifasi yuklatilsin.

3. “Bahor savdo kompleksi” MChJ (**Fayziyev**) va “Navroʻz” MChJ (**Ishanqulov**) rahbarlariga:

ishchi-xodimlarning lavozim majburiyatlari va jamoa shartnomasini toʻliq shakllantirib, ijrosini taʼminlash;

lavozimidan ozod etilgan xodimlar oʻrniga tayinlanadigan shaxslar vazifalarini aniqlik bilan belgilash va moddiy javobgarlik choralarini qoʻllash;

bozor hududidagi sanitariya-gigiyena qoidalariga qatʼiy rioya etilishini, oʻt oʻchirish moslamalarining holatini doimiy nazorat qilishni va favqulodda holatlarning oldini olish boʻyicha tegishli choralarni koʻrishni taʼminlash;

elektr va gaz tarmoqlaridan foydalanishda normativ hujjatlar talablariga toʻliq amal qilish;

bozor hududida belgilanmagan joylarda tovar mahsulotlarini reklama qilishga yoʻl qoʻymaslik va savdo faoliyatini tartibga solish;

tadbirkorlarga ajratilgan savdo maydonlarini tasdiqlangan hujjatlar asosida doimiy ravishda nazorat qilish;

tadbirkorlarning oʻzlariga biriktirilgan savdo joylarida faoliyat yuritishlarini nazorat qilish va belgilanmagan joylarda savdo yoki reklama faoliyatiga yoʻl qoʻymaslik;

bozorlarda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida inson omilisiz raqamlashtirish tizimlarini joriy etish choralarini ko‘rish;

har qanday qonunbuzarlik yoki korrupsiyaviy holatlar aniqlangan taqdirda, belgilangan tartibda sud organlariga taqdim qilish va jazo muqarrarlighi tamoyiliga rioya qilinishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur yig‘ilish bayoni ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Bayonnomani rasmiylashtirdi



Sh. Ne‘matov